European Journal of Interdisciplinary Research and Development
Volume- 34 December- 2024
Website: www.ejird.journalspark.org ISSN (E): 2720-5746

INGLIZ TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA CBI YONDASHUVIDAN FOYDALANISHNING LINGVO-DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Yo'ldosheva Maftuna Islom qizi

ANNOTATSIYA:
Mazkun maqola ingliz tili darslarini samarali tashkil etishda til o'qituvchilariga yordam beruvchi yondashuvlardan biri bo'lgan CBI- Mazmunga asoslangan o'qitishning ilk paydo bo'lgan davrlaridan tortib, hozirgi vaqtgacha paydo bo'lgan yangi modellari hamda ularning o'ziga xos alohida jihatlari, nazariyalari, ular haqida olimlarning fikr va sharhlari haqida qisqa, ammo to'liq ma'lumot berishga qaratilgan bo'lib, o'quvchi ushbu maqola bilan tanishish jarayonida CBIning nechog'lik samarali yondashuv ekanliging guvohiga aylanadi.
Ushbu maqola tadqiqoti to'rt bosqichda amalga oshirilgan bo'lib, ularga: ma'lumotlarni to'plash, ma'lumotlarni tahlil qilish, saralash va ma'lumotlar tahlili natijalarini taqdim etish kiradi. Avvalo, ma'lumotlar kuzatish, saralash va qayd qilish orqali yig'ilgan. So'ngra, ma'lumotlar afzalliligiga ko'ra taqqoslash, tenglashtirish va farqlash texnikasi yordamida tahlil qilindi. Nihoyat, tahlil natijasi rasmiy va norasmiy usullardan foydalangan holda yoritilgan.

Kalit So'zlar: Yondashuv, modellar, olim, CBI, o'qituvchi, o'quvchi, til, mazmun, ko'nikmalar.

Introduction
KIRISH

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan asrimizda, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ulkan o'zgarishlarning guvohi bo'lishimiz mumkin. Jumladan, ta'lim sohasida ham so'nggi yillarda misli ko'rilmagan yangiliklar, innovatsiyalar dunyo yuzini ko'rdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yurtimizda ta'limning barcha bosqichlarini qamrab olgan o'zgarishlarga Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning qaror -loyihalari ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qarori [1] bu borada tub o'zgarish yaratdi. Til darslarining sifat darajasini yaxshilash maqsadida turlicha yangi va mavjud yondashuvlar sayqallanib, o'zgartirilib talabalarga taqdim etilayotgan bir davrda, CBI yondashuvi ta'limning barcha bosqichlarida va o'quvchilarning til ko'nikmalari darajasidan qat'iy nazar, barchaga birdek moslashtirilishi mumkin bo'lgan yondashuv sifatida o'z dolzarbligini asrimizning boshidan buyon isbotlab kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Butun dunyo bo'ylab, shu bilan birga yurtimiz O'zbekistonda ham tilshunislik va ta'lim sohasi vakilalri CBI yondashuvining yangi modellari, metodlari, qo'llash usullari hamda yo'llari haqida turli go'ya hamda fikrlarni ilgari suradilar. Ularning ayrimlari bu yondashuvni qo'llashni yanada samaraliroq tashkil etishda, faqatgina, til va akademik kontent uyg'unlashishi

lozim deb qarasalar, ba'zilar o'quvchilarning mavjud bilimlari hamda qiziqishlari inobatga olingan holda, istalgan soha, fan tarmog'i hamda mazmun doirasida tuzilgan dars jarayoni o'quvchilarga til o'rganish jarayonini yanada osonlashtiradi va ularni ruhlantiradi degan g'oyani ilgari suradilar. Richards va Rodgers, Diane Brinton, Marguerite Annn Snow va Wesche ushbu yondashuvning samaradorligini oshirishga, o'quvchilar til ko'nikmalari blan hamohang tarzda tarix va turli ijtimoiy fanlar doirasta tuzulgan mazmun yordam berishini ta'kidlaydilar. Roy Lyster til va mazmunga diqqat qaratib, ularning hech biri til ta'limida ajratib bo'lmaydigan elementlar deya ta'rif beradi. Stroller va Shannon Fitzsimmons-Doolan ham, til rivojlanishida akademik mazmun qurshab olinishi kerak deya hisoblaydilar. Leo Van Lier, o'qitish jarayonida mazmun va ijtimoiy kontekstlar o'zaro aloqada bo'lishi kerak deya hisoblaydi.

Nafaqat xorijda, balki O'zbeksitonda ham Content Based Instruction yondashuvi qator ta'lim muassasalarida, keng jamoatchilik tomonidan qo'llanilmoqda. Misol tariqasida aytishimzi mumkinki, Shuxrat Xodjayev meditsina va sog'liqni saqlash tarmoqlarida CBIdan foydalanishning natijasini o'rgangan bo'lsa, Gulnoza Nurmatova til va kontent integratsiyasini universitetlar o'quv dasturlari ustida ish olib borgan. Diyorbek Abduraxmonov injenerlik va texnologiya kontekstlari orqali ingliz tilini o'qitishga va texnikaga oid lug'at boyligi va til o'rganishga hissa qo'shgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Stryker va Leaver qayd etgan CBIning muhim xususiyatlardan biri: til va mazmun integratsiyalashuvi Leaster tomonidan ham qo'llab quvatlangan holda talabalar til va mazmunni bir vaqtda o'rganishlari, har ikkisisning rivojlanishiga sabab bo'lishi aytilgan bo'lsa, "Mazmunga asoslangan ESL darslari mazmunga asoslangan materiallarni mazmunli, kontekstli shaklda taqdim etadi, bunda asosiy e'tibor ma'lumotni qabul qilishga qaratiladi"[1],- deya yuqoridagi olimlar fikrini Kasper ham maqullaydi. Turli dasturlarda olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, til va mazmunni o'rganishda CBI natijalariga ko'ra, ushbu yondashuv motivatsiyani oshiradi va grammatikani o'rganish uchun qulay sharoit yaratadi [2, 3] Peachy bu yondashuv til o'rganish jarayonini yanada rag'batlantiruvchi va qiziqarli jarayonga aylantirishi mumkinligini ,buning asosiy sababi esa o'quvchilar tildan haqiqiy hayot maqsadi bilan foydalanishini ko'rsatgan. Bundan tashqari, CBI targ'ib qilish salohiyatiga ega, madaniyatlar to'g'risida tushunchalar hosil bo'lishiga va o'quvchilarni boshqa tilda o'qish va ishlashga ko'maklashadi [4]. Stryker and Leaver bu yondashuvni chuqur o'rganishlari natijasida "metodologiyadan ko'ra ko'proq falsafa"[2] degan fikrni ilgari surganlar.

Bugungi kunga qadar biz tahlil qilayotgan CBIning turli o'qitish modellari ommaga taqdim etilgan bo'lib, ba'zi olimlar ularni turli ta'lim bosqichlarida o'qitilishiga ko'ra, talabalar tilni L1 yoki L2 sifatida o'zlashtirishiga ko'ra, qaysi til ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilganligiga ko'ra va boshqa qator xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratganlar. Quyida Richards va Rodgers CBI darslarining 4 xil modellarini tahlil qilganlar. Ularning barchasi


[1] Kasper. L.F. The Impact of Content-Based Instructional Programs on the Academic Progress of ESL Students. English for Specific Purposes.1997. -B. 2.
[2] Stephen B. Stryker, Betty Lou Leaver. Content-Based Instruction in Foreign Language Education: Models and Methods.- Georgetown University Press, 1997.-B. 3.

universitetda o'qitishga mos deb topilib, ikkita turi: Mavzuda asoslangan (theme based) hamda Qo'shimcha (adjunct) modellari faqatgina boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichlariga mos deya qaraladi:

- Mavzuda asoslangan (Theme- based)- o'quv re'asi umumiy mavzular atrofida birlashadi, darslar til o'qituvchisi tomonidan olib boriladi yoki mavzu mutaxassisi darslarni olib boradi. Tanlangan mavzu o'qish, lug'at boyligini oshirosh undan so'ng o'zaro munozara, audio va video materillar, so'ngra eshitish mashqlari orqali ketma- ket rivojlanib, eng so'nggida yozma mashq barcha ko'nikmalarni integratsiyalashtiradi.
- Sheltered modeli- mazmuni o'rganilayotgan darslar til o'qituvchsi tomonidan yoki o'rganilayotgan mavzuni yaxshi biluvchi mutaxassis tomonidan o'qitiladi. Bu model ba'zi vaqtlarda Kanada va Qo'shma Shtatlar universitetlarida ham qo'llanilgan. Ingliz tilini o'rganuvchi talabalar asl ingliz tilida so'zlovchilar bilan bir guruhda emasliklari tufayli, o'qituvchi tanlayotgan mashqlarini o'quvchilarning imkoniyatlari, til ko'nikmalari va bilim darajalariga ko'ra tanlay oladi va bu modelda yozma mashqlar kamroq talab qilinadi.
- Adjunct modeli- o'quvchilar mazmunan bog'langan ikki xil kursda o'qitiladi: ulardan biri faqatgina mazmunni o'qitsa, ikkinchisi tilni o'qitadi, lekin ularni bir xil mazmun doimo birlashtirib turadi va o'quvchilarning o'zlashtirishlari bo'yicha doimiy nazorat ishlari olib boriladi. Bu model, odatda, talabalar universitetga kirishlari yoki ingliz tilida so'zlovchi davlatga safar qilishlari oldidan qo'llaniladi. Bu modelda asosiy e'tibor til va lug'at boyligigga qaratilgan bo'ladi.
- Skills- based modeli- til ko'nikmasining aynan bir turi rivojlanishiga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Mazmun bir yoki bir necha akademik resurslardan o'rganiladi, masalan, mini leksiyalar, o'qish uchun materiallar va munozaralar barchasi eng so'nggida ular bo'yicha yozma topshiriqlar bajarishga olib boradi. Talabalardan turli xil ko'rinishdagi yozma ishlar talab qilinadi: qisqa insholar, xulosalar va tadqiqot xulosalari shular jumlasiga kiradi. Bu modelda yozish kompetensiyasi boshqa kompetensiyalarni birlashtiradi. [3]

Ikkinchi til ta'limida mazmunga asoslangan o'qitishning dastlabki paydo bo'lgan yili 1989 – yildan beri, CBIning ko'plab yangi modellari paydo bo'ldi. Quyida Brinton tomonidan taklif qilingan CBI modellarining yangi ko'rinishi berilgan. Ushbu diagrammada ko'rsatilganidek, asosiy uchta prototip asosida yangi modellar shakllanmoqda va boshqa yangi "gibrid" modellar ham ro'yxatga kiryapti. Snow esa o'zining besh modeli, immersion ta'lim, boshlang'ich maktabda mazmunan boyitilgan chet tili, mavzuga asoslangan model, sheltered model va adjunct modellari bilan CBI tasnifining boshqa uslubini taqdim etadi.

[3] Richards, J.C and Rodgers, T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – England, Cambridge University Press, 2014. -B. 129- 131.



(D.M.Brinton, 2007)

XULOSA

CBI yordamida dunyo haqida yanada kengroq bilim egallanishi turli fanlarda as qotadigan ta'limiy ehtiyojlarni qondirishdagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, bu yondashuvning muhim afzalligi shundaki, CBI motivatsiya, o'ziga ishonch, chet tilini bilish va madaniy savodxonlikni oshiradi [3] Bu yondashuv maktablar, kollejlar, oliy o'quv yurtlari va o'smirlar ta'limining boshqa dasturlarida qo'llanilishi mumkin[5] ligi, uning ta'limning barcha bosqichlarida erkin qo'llanishiga imkon bergan holda, o'qituvchilar faoliyatini ham rag'batlantiradi. Foydalanuvchilari xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, ular tarkib vositasida birlashadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekistonn trespublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qarori
2. International Journal of English Studies. 4- son. 2004- yil iyun.
3. Stephen B. Stryker, Betty Lou
4. Leaver. Content-Based Instruction in Foreign Language Education: Models and Methods.- Georgetown University Press, 1997- yil 1- sentabr.
5. ESTUDIOS SOBRE EDUCACIÓN. 31- son. 2016- yil oktabr.
6. Marguerite Ann Snow, Doanna Brinton. The Content- based Classroom: Perspectives On Integrating Language and Content. Longman, 1997.
7. Kasper, L.F. The Impact of Content-Based Instructional Programs on the Academic Progress of ESL Students. English for Specific Purposes.1997. -B. 2.
8. Stephen B. Stryker, Betty Lou Leaver. Content-Based Instruction in Foreign Language Education: Models and Methods.- Georgetown University Press, 1997.-B. 3.
9. Richards, J.C and Rodgers, T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – England, Cambridge University Press, 2014. -B. 129- 131.